



MIRZACHO‘L HUDUDI SUG‘ORILADIGAN YERLARINING HOZIRGI KUNDAGI MELIORATIV HOLATI

Bobojonov Nurimon Shaxriyor o‘g‘li

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya

va agrotexnologiyalar instituti talabasi

nurimonbobojonov@gmail.com

Annotatsiya: Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining gidrogeologik meliorativ holatini baholash maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlarda yer osti suvlari rejimi va meliorativ choralar muhim o‘rin tutgan. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasi irrigatsiya tizimlari kanallar, lotok tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar, kollektor – drenaj tarmoqlari hamda boshqa suv xo‘jaligi obyektlari qurilishi va rekonstruksiya qilinishi hisobiga kamaygan.

Kalit so‘zlar: gidrogeologik, meliorativ, irrigatsiya tizimlari, kanal, nov kanal, gidrotexnik inshoot, kollektor, drenaj, obyekt.

Abstract: Groundwater regime and melioration measures played an important role in the studies carried out in order to assess the hydrogeological reclamation status of Jizzakh and Syrdarya regions. The level of salinity of irrigated lands has decreased due to the construction and reconstruction of irrigation systems, canals, channel networks, hydrotechnical structures, collector-drainage networks and other water management facilities.



Key words: hydrogeological, amelioration, irrigation systems, channel, new channel, hydrotechnical facility, collector, drainage, object.

Аннотация: Режим подземных вод и мелиоративные мероприятия сыграли важную роль в исследованиях, проводимых с целью оценки гидрогеологического мелиоративного состояния Джизакской и Сырдарьинской областей. Уровень засоленности орошаемых земель снизился за счет строительства и реконструкции ирригационных систем, каналов, русловой сети, гидротехнических сооружений, коллекторно-дренажных сетей и других водохозяйственных объектов.

Ключевые слова: гидрогеологические, мелиорация, ирригационные системы, канал, новый канал, гидротехническое сооружение, коллектор, дренаж, объект.

Kirish. Jizzax va Sirdaryo viloyati Respublika ishlab chiqarishida va madaniy taraqqiyotida salmoqli o‘rin tutadi. Xususan, paxta, g‘alla, sabzavot, meva, chorva mahsulotlari yetishtiriladi. Bog‘dorchilikni rivojlantirishga e‘tibor berilmoqda. Qurilish materiallari, xalq iste‘mol mollari ishlab chiqaradigan korxonalar salmog‘i oshdi. Viloyatlarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2,5 mlrd. so‘mdan ziyod kredit mablag‘lari ajratildi.

Viloyatlar qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i – paxtachilik va bug‘doychilik. Paxta ekini maydoni viloyatlardagi sug‘oriladigan yer maydonining asosiy qismini tashkil etadi. Viloyatlar qishloq xo‘jaligida pillachilik ham salmoqli o‘rin tutadi. Qishloq xo‘jaligida kartoshka, poliz, sabzavot, uzum, ho‘l meva yetishtirish bilan ham shug‘ullaniladi.

Asosiy qism. Mirzacho‘l [O‘rta Osiyodagi tekislik](#). [O‘zbekistonning Sirdaryo, Jizzax viloyatlari](#), [Qozog‘istonning Janubiy Qozog‘iston](#) viloyati va [Tojikistonning Zafarobod tumani](#) hududlarida. Maydoni 10 ming km², balandligi 230 –385 m.



Mirzacho‘lda sizot suvlari tog‘ oldi tekisliklarida 20 – 120 m, tekislik qismida esa 0,3 m chuqurlikda, sho‘rligi 30 g/l dan ortiq, tarkibida xlorid tuzlari ko‘p. Markaziy qismida sizot suvlarining oqimi nihoyatda sekin va ancha sho‘r. Mirzacho‘ldagi prolyuvial tekisliklarda tipik bo‘z, markaziy va tog‘ oldi qismlarida och bo‘z, o‘zansimon pastliklarda sho‘rxok, sho‘rtob, daryo vodiysida allyuvial – o‘tloqi, o‘tloqi, o‘tloqibotqoq tuproqlar tarqalgan. Markaziy qismidagi och bo‘z tuproqlarning ustki qatlami (1 – 3 m) sho‘rlanmagan, ostki qatlamdagi qumoq va qumloq yotqiziqdar kuchli sho‘rlangan.

Mirzacho‘l tuproqlari juda sho‘r va sizot suvlari yuza bo‘lganidan maxsus meliorativ tadbirlar amalga oshiriladi. Mirzacho‘lning sho‘rlanmagan yerlarida [qo‘ng‘irbosh](#), [oqquray](#), [kovrak](#), qizil burgan, sho‘rlangan yerlarida oq [shuvoq](#), [yulg‘un](#), [sho‘rxoklarda](#) qorabaroq, [ajriq](#) o‘sadi.

1913 – yil hozirgi [Do‘stlik kanali](#) ishga tushirilgan. 1911 – yil sug‘oriladigan yerlarning maydoni 12 ming ga bo‘lgan. 1910 – yildan 1914 – yilgacha 95 ming ga yer o‘zlashtirilib, shundan 60 ming ga yer sho‘rlanish va botqoqlanish natijasida ishdan chiqqan. Imkon qadar ko‘proq paxta xomashyosi yetishtirish va uni metropoliyaga tashib ketish maqsadida Moskva, Petrograd va boshqa shaharlardan texnika va mutaxassislar kela boshladi. Sug‘oriladigan yerlar maydoni 1921 – yilda 20 ming ga, 1924 – yilda 50 ming ga, 1928 – yild 67 ming ga gacha yetdi. 60 ming ga sho‘r bosgan va botqoqlashgan yerlar o‘zlashtirilib, ekin maydoniga aylantirildi. 1941 – yilda sug‘oriladigan yerlar maydoni 90 ming ga bo‘ldi. Qayroqqum suv ombori qurilishi bilan Mirzacho‘lning suv bilan ta‘minlanishi yaxshilandi. 1956-yil sug‘oriladigan yerlar 205,5 ming ga ga yetdi. [Janubiy Mirzacho‘l kanali](#), Qayir va [Markaziy Mirzacho‘l kollektorlari](#) ishga tushirildi. Sho‘ro‘zak, Sardoba va boshqa kollektorlarning ishi yaxshilandi. Mirzacho‘lda yerlarning sho‘rini yuvish sizot suvlarining yuzasini pasaytirish bo‘yicha ko‘p ishlar amalga oshirildi.



Hozirgi kunda Mirzacho‘lning deyarli butun hududi noqulay litologo-gidrogeologik sharoitiga ko‘ra sun‘iy drenaj barpo qilinishiga muhtojligini ko‘rish mumkin. Mirzacho‘l vohasining barcha yerlari tuproq-meliorativ sharoitiga va drenaj bilan ta‘minlanganligiga ko‘ra asosan 4 toifaga ajratish mumkin.

I toifa – eng yaxshi yerlar bo‘lib, bitta vertikal drenaj qudug‘iga 200 gadan ortiq yer to‘g‘ri keladi.

II toifa – yaxshi yerlar bo‘lib, gorizontal drenaj bilan ta‘minlanganligiga 25-55 m/ga ni tashkil etadi; vertikal drenajning bitta qudug‘iga 100 dan 200 ga gacha yerlar to‘g‘ri keladi. Ushbu toifaga Janubiy Mirzacho‘l kanali mintaqasining umumiy maydoni 265 ming ga bo‘lgan markaziy va janubi-g‘arbiy massivlari kiradi.

III toifa – qoniqarli yerlar bo‘lib, gorizontal drenaj bilan ta‘minlanganligi 55-80 m/ga ni tashkil etadi, vertikal drenajning bitta qudug‘iga 50 dan 100 gektargacha yerlar to‘g‘ri keladi. Bu toifadagi yerlarga Sho‘ro‘zak, Yettisoy va Sardoba (uning markaziy qismini istisno qilganda) botiqlari kiradi. Janubiy Mirzacho‘l kanali mintaqasida bunday yerlar deyarli yo‘q.

IV toifa – o‘zlashtirishga qiyin yerlar bo‘lib, gorizontal drenajning bo‘ylama uzunligi 80 m/ga dan ortiq bo‘lib, vertikal drenajning bitta qudug‘iga to‘g‘ri keladigan yerlar maydoni 50 ga dan oshmaydi.

Xulosa. Shunday qilib, yuqorida keltirib o‘tilganlardan xulosa qilganimizda Mirzacho‘l vohasi yerlarining ko‘pgina qismi yaxshi yerlar toifasiga, xo‘jalikda o‘zlashtirilishi nuqtai nazaridan qoniqarli yerlar maydoniga ko‘ra ikkinchi o‘rinda turishini hamda foydalanish birmuncha qiyin yerlar Mirzacho‘l vohasida nisbatan unchalik katta emasligini ko‘rishimiz mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Mirzacho‘l vohasining tabiiy-meliorativ sharoitini umumiy baholash”. Toshboev Zafarjon Maxramkulovich., Jizzax davlat pedagogika universiteti., Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası katta o‘qituvchisi., Jizzax.
2. Toshboev Z.M. Mirzacho‘l voha landshaftlarining shakllanishida irrigatsiyaning roli. //Nauka i obrazovanie v sovremennom mire. Вызовы XXI veka. Mejdunar. nauchno-prakt. jurnal. Nur-Sultan, Kazaxstan. 2020.
3. Toshboyev Z.M. Relief forms of Mirzachul oasis. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. / 10 Issue
4. Internet saytlari.